

YER UMUMMILLIY BOYLIGIMIZ

Abduazimov Akbar Muxtorovich

“TIQXMMI” MTU ning q.x.f.f.d., professor, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, o’qituvchi

O’ralova Gulida Ergash qizi

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Sarmanova Dilrabo O’tkir qizi

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti bakalavr tamomlagan.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer huquqi tushunchasi, predmeti, tamoyillari va yer munosabatlarini tartibga solish uslublari, yer huquqi manbalari, yerga mulkchilik masalalari, yer tuzish va yer kadastrining huquqiy asoslari, yerlarni huquqiy muhofaza qilish, yer qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik masalalari to’g’risida fitir mulohaza keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрено понятие земельного права, его предмет, принципы и методы регулирования земельных отношений; источники прав на землю; вопросы собственности на землю; правовые основы землеустройства и земельного кадастра; правовая охрана земель; дается заключение по вопросам ответственности за нарушение земельного законодательства.

Abstract. In this article, the concept of land law, its subject, principles and methods of regulating land relations; sources of land rights; land ownership issues; legal basis of land formation and land cadastre; legal protection of lands; an opinion is given on the issues of responsibility for violating the land legislation.

Kalit so'zlar. yer, qishloq xo'jaligi, yer huquqlari, yer huquqning tasniflari, tabiat, tarmoq, texnologiya, boylik.

Kirish. “Yer” so‘zi bolalik yillarimizdan xar birimiz uchun bir qator ma’nolarni anglatgan, avvalambor “Yer” deganda insoniyat va barcha tirik mavjudotlarga hayot baxsh etgan sayyorani tushunganimizda u ulug‘vorlik va muazzamlik kasb etadi. Davlat qudrati va u bilan bog‘liq Vatan tuyg‘usi O‘zbekiston Respublikasi davlat yer fondi va davlat hududi chegaralari belgilangan geografik xarita yoki globusga nazar solganimizda namoyon bo‘ladi. Ushbu yerda tug‘ilib kamol topgan olimlar, siyosatchilar va davlat rahbarlarini sanab o‘tganimizda biz o‘z yerimiz va Vatanimiz bilan faxrlanish hamda g‘ururlanish tuyg‘ularini xis etamiz. Bulardan tashqari “yer” so‘zida tabiiy ob’ekt tushunchasi (yer usti tuproq qatlaming qa’ri va davlat yer fondining butun hududi) ham jo bo‘lgan.

Yer va unga bog‘liq munosabatlar xar bir davlatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqeliklarning markazida turuvchi masala hisoblanishi yerning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ahamiyatidan kelib chiqadi. Shu boisdan yangidan barpo etilayotgan jamiyat o‘zining iqtisodiy rivojini dastlab yerga nisbatan munosabatni o‘rnatishdan boshlashi tarixdan ma’lum. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 31 avgustda qabul qilgan "Davlat mustaqilliga to‘g‘risida"gi Bayonotida:

"O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da’volari bo‘lmay, u o‘z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir", - deb, yoki shuningdek, "O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi 1991 yil 31 avgust Qonunida "Respublika hududida yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va xayvonot dunyosi tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma’naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi va mulki hisoblanadi", -deb ta’kidlanishi bejiz emas. Demakki, siyosiy xokimiyatga egalik qilgan ijtimoiy kuchlar yer va uning boyliklariga nisbatan o‘z xokimiyatini o‘rnata olmasalar, ular qo‘lga kiritgan bu

xokimiyat ildizsiz daraxt misolidir. Shu boisdan ham davlat yerni moddiy boyliklar asosi sifatida e’tirof etib, o‘z milliy qonunlari bilan tasarruf qiladi. [1].

Yer tabiat mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mazkur tarmoqning eng asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yerga urug‘, ko‘chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. Demak, tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagи mahsulotlar yerdan, suvdan foydalangan holda olinadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq va suv xo‘jaligini bozor munosabatlariga o’tkazish va ularning iqtisodiyotini talab va taklif qonunlarining amal qilishi asosida rivojlantirish, ko‘p jihatdan kadrlar tayyorlashning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog’liq. Bu muammolarni hal etishda suv xo‘jaligi iqtisodiyoti fanini talabalar tamonidan chuqur o‘rganishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlari – bu bizning beba ho milliy boyligimiz, oziq-ovqat xavfsizligi, oddiy qishloq aholisining kundalik hayoti, degani. Shuning uchun ushbu yerlar ochiq tanlov asosida faqat ijara ga beriladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Yer va uning boyliklari milliy yurisdiksiya ta’siriga olinganligi yerga nisbatan huquqiy munosabatlar vujudga kelishini talab etadi. Yer atrofida vujudga kelgan va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan munosabatlarning aksariyat qismini yer huquqi tartibga soladi. Yer huquqining uchta tavsiflarda tushunchalari bor.

Birinchisi, yer huquqi O‘zbekiston huquq tizimining mustaqil huquq tarmog‘idir. Yer huquqida xar bir huquq tarmog‘i uchun zarur bo‘lgan belgilar mavjuddir, ya’ni a) u o‘z maxsus predmetiga ega: b) u o‘z maxsus huquqiy

tartibga solish uslubiga ega; v) davlat shu soxadagi ijtimoiy munosabatlarni alohida tartibga solib turadi; g) u alohida guruxlangan huquqiy- normativ aktlar majmuasiga ega.

Ikkinchisi, yer huquqi O‘zbekiston huquq fanining bir soxasidir. Shu o‘rinda unga fanga tegishli bo‘lgan barcha xususiyatlar tegishli bo‘ladi. Ushbu fandagi ilmiy-nazariy tushunchalar, qarashlar, muammolar va uni rivojlantirish masalalari bu fanning moxiyatini tashkil etadi.

Uchinchisi, yer huquqi maxsus o‘quv kursidir. Uning o‘quv kursi sifatidagi xajmi, mazmuni va maqsadlari xar xil darajadagi o‘quv muassasalari uchun xar xil bo‘lishi mumkin.

Yer huquqining va yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari Yer kodeksining 1-moddasida ko‘rsatilganidek, xozirgi va keljak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muxitni asrash va yaxshilashni, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu soxada qonuniylikni mustaxkamlashdan iborat.[2].

Yer huquqining tamoyillari deganda uning barcha me’yorlari uchun asos bo‘ladigan holatlar qabul qilinadi. Bunda yer huquqining umumiyl tamoyillari bilan yer kodeksining 2-moddasida keltirilgan yer tog’ridagi qonunchilik hujjatlari tamoyillarini chalkashtirmaslik zarur. O‘zbekiston yer huquqining umumiyl tamoyillari quyidagilardan iborat.

- ❖ yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanish
- ❖ yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda unumdorligini oshirish
- ❖ qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljalangan yerkarni (sug‘oriladigan yerkarni) alohida muhofaza etish va qat’iy belgilangan maqsadda

foydalanish

- ❖ yer va boshqa tabiiy obyektlarga zarar yetkazilishining oldini olish
- ❖ yerga bo‘lgan huquqning xilma-xilligi
- ❖ yer munosabati ishtirokchilarining teng huquqliligi
- ❖ xaq to‘lash asosida yerdan foydalanish
- ❖ yerlarning holati xaqida axborotlardan erkin foydalanish
- ❖ yer va uning boyliklaridan kompleks foydalanish
- ❖ yerga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
- ❖ yer uchastkasini saqlash va servitutlarga amal qilish. [3].

Qishloq xo‘jalik uchun mo‘ljallangan (sug‘oriladigan) yerlarni alohida muhofaza qilish va qat’iy belgilangan maqsadda foydalanish tamoyili asosida shaklangan normalar ushbu toifa yerlarining maxsus huquqiy maqomini belgilaydi.

Yersiz, tuproqsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz yerni asrab avaylash iqtisodiyotimiz uchun juda katta boylik hisoblanadi. Yerni himoya qilish to‘g’risida juda ko‘p qonun qarorlar qabo‘l qilinggan va shu bilan birga har yili 22 aprelda nafaqat ulkan, balki chinakam xalqaro bayram - Xalqaro Yer kuni - bizning umumiy uyimiz bo‘lgan kun nishonlanadi.

Bayram 2009 yilda BMT Bosh Assambleyasining 63-sessiyasida BMTning 50 dan ortiq davlat a’zolari tomonidan homiylik qilingan) 22 aprel kuni tayinlangan va 2010 yil boshidan nishonlanish boshlangan. [4].

Bosh Assambleyaning 63-sessiyasining raisi Migel d’Escoto Brokman ushbu Xalqaro kunning qarorida Yer va uning ekotizimlari bizning uyimiz ekanini tan olish, insoniyatni hayot bilan ta’minlashni e’tirof etishni BMTning Atrof-muhit bo‘yicha konferentsiyasida qabul qilingan majburiyatlarni tasdiqlashini 1992 yilda Rio-de-Janeyroda e’lon qildi. Shuning uchun hozirgi va kelajak avlodlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlari o’rtasida adolatli muvozanatga erishish uchun tabiat va Yer sayyorasi bilan uyg'unlikni ta’minlash kerak. [5].

Xulosa. Yer biz insonlarning ummumilliy boyligimiz hisoblanadi, tabiatga ozor bermaslik, uning boyliklaridan va ne'matlaridan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni asrash, jonivorlarga ziyon yetkazmaslik, ifoslantirmaslik, o‘z tevarak-atrofimizni pokiza tutish – bu har birimizning qo‘limizdan keladigan oddiy va lekin umumiylashtirish manfaati uchun g‘oyat muhim bo‘lgan narsalardir. Bu bizning nafaqat o‘zimiz uchun, balki kelgusi avlodlar uchun ham qiladigan eng katta xizmatimiz bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaabdullaeva M.R, Muqumov A.M, Xafizova Z.X. Yer huquqi. O‘quv qo‘llanma -T.: “TIMI”, 2016.
2. Yer huquqi. Darslik. M.Rustamboev taxriri ostida. TDYUI, 2007
3. Nigmatov A.N. Yer huquqi. -T.: “Islom univyyersiteti”, 2001.
4. <https://lex.uz/docs/-4567334>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6055539>